



XALQ DEPUTATLARI MARG'ILON SHAHAR KENGASHINING QARORI

2024-yil 17-aprel

VI-85-39-11-168-K/24

Marg'ilon shahar

2024-yil 1-chorak yakuni bo'yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024-yil 30-yanvar kungi "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi KQ-666-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 81-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2024-yil 1-chorak yakuni bo'yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan Marg'ilon shahar Iqtisodiyot va moliya bo'limi mudiri A.Mastonovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

2024 yil 1-chorak yakuni bo'yicha tashabbusli byudjetlashtirish natijalari yuzasidan ma'lumotlar 1-ilovaga muvofiq;

3. Marg'ilon shahar Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Mastonov), shahar hokimligi axborot xizmati (A.Mansurov) Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq byudjet" axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (V.Zokirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SH.Nisbatxonov

Xalq deputatlari Marg'ilon shahar
Kengashining
2024-yil 17-apreldagi
VI-85-39-11-168-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Marg'ilon shahri 2024 yil 1-chorak yakuni bo'yicha tashabbusli budjetlashtirish
natijalari yuzasidan**

MA'LUMOT

2024-yil 1-aprel

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
1.	Yil boshiga qoldiq	968 393,0
	<i>Shundan avvalgi mavsumlarda g'olib bo'lgan loyihalar uchun ajratilishi lozim bo'lgan, qayta taqsimlanmagan mablag'</i>	
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'	476 416,8
3.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'	
3.1	<i>Bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'</i>	
3.2	<i>Hisobvaraqlardagi qoldiq</i>	
4.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'	1 444 809,8

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	Ko'rsatkichlar		
			o'lcho v birligi	miqdori	sarflangan mablag'
Jami			X	X	0
1.	Hududiy ichki yo'llar		umumiy uzunligi		
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi		

7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari		chiroqlar soni		
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)		tadbirlar soni		
9.	Boshqa tadbirlar		soni		